

SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA BO‘SH VAQT FAOLIYATINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Azamat Maqsudovich To‘rayev

Mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda o‘smir-yoshlarning rasmiy bo‘lmagan makon-bo‘sh vaqtni tashkil qilishiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar, vaqtdan unumli foydalanish muammolari, bo‘sh vaqtni uslubiy jihatdan tog‘ri tashkil qilishning o‘smir yoshlarning shaxs sifaida shakllanishi va ijtimoiylashuvdagi ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘sh vaqt, ijtimoiylashuv, “ijtimoiy ta’lim”, ijtimoiy rollar, ijtimoiy talablar, media muhit, farovonlik, zamonaviy o‘smirlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiylashish muammolari

ABSTRACT

In our three articles, the social demands placed on the organization of informal space-free time by teenagers, the problems of efficient use of time, the personal characteristics of teenagers and the proper organization of free time from a methodological point of view. its importance in socialization has been studied.

Keywords. leisure time, socialization, "social education", social roles, socials, media environment, well-being, modern teenagers, social demands, social problems, social problems

KIRISH

Dunyoning bir qator taraqqiy etgan mamlakatlarida ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida “bo‘sh vaqt” tushunchasi, uning mazmuni, shakllarini o‘rganish va undan unumli foydalanish mexanizmlarini yaratish bo‘yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar ishlari olib borilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda maktab o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil qilishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, maktabdan tashqari bo‘sh vaqtini oqilona tashkil qilishda ta’lim muassasalari, madaniy-ma’rifiy tashkilotlarning rolini yanada oshirish, ijtimoiy-huquqiy asoslarni yanada mustahkamlah bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maktab o'quvchilarida yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari mahalliy olimlardan O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Matchonov, M.Quronovlar tomonidan o'rganilgan.

MDH tadqiqotchilaridan V.G.Bocharova, V.Z.Vulfov, A.N.Leontiev, A.V.Mudrik, Ye.M.Gorenkov, A.Ya.Jurkina, L.A.Permakov va boshqalar tomonidan o'smir-yoshlarning shaxs sifatida shakllanishidagi asosiy muammolar, maktabdan tashqari o'quvchilarining bo'sh vaqtida sinfdan tashqari mashg'ulotlarining shakllari, tarbiyaviy ahamiyati va bu boradigi muammolar bo'yicha tizimli tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy olimlardan M.Parmentye, S.Hellokamps, F.Shmeydr, G.Spenser, R.Sorokin va boshqalar o'smir yoshlarda o'z-o'zini tarbiyalash muammolari, olmon olimlaridan L.Veber, B.Myuller, V.Xornshteyn, B.Engholm kabi olimlar bo'sh vaqtning shaxs takomilidagi funksiyalari, roli bilan bog'liq muammolarni o'rganganlar. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'smir yoshlarning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida bo'sh vaqt faoliyatining ahamiyati xususida ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Tadqiqot ishida tarixiylik, analiz, sintez, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

Bo'sh vaqt shaxsga mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyatlarini tiklashga yordam beradi. Psixologik, pedagogik va ijtimoiy tahlillar zamonaviy bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqt faoliyati qattiq tartibga solinganligi, qarama-qarshilikga to'la ekanligini ko'rsatadi. Maktab o'quvchilarning bo'sh vaqtini oqilona tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ish holati qoniqarli emas. Sababi aksariyat maktab binolarida to'garak yoki ijodiy ish bilan shug'ullanish uchun yetarli sharoit mavjud emas. Maktablarning ko'pchiligida ikki smenada ish olib borishi, o'qituvchilarning yuqori darajada bandligi bunga xalaqit beradi. Maktab o'quvchilarini shaxs sifatida rivojlantirish, tarbiyalash, ijtimoiylashish muommolarini hal etishda dars va darsdan tashqari faoliyatidagi shaxsiy ishini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada bo'sh vaqtni boalning asosiy huquqlaridan biri sifatida e'lon qilingan.

O'smir yoshlar faoliyatida vaqtni boshqarish muammosi o'z vaqtini ijtimoiy talablar va shaxsiy manfaatlariga muvofiq tashkil etish qobiliyati bilan bevosita bog'liq. Ta'limdan tashqari vaqtda rasmiy bo'lmagan bo'sh vaqt makonida har bir o'smir o'z oldiga qanday



maqsadlar qo'yishini, unga erishish imkoniyatlari va buning uchun vaqtni qanday taqsimlash, qanday faoliyat shakllari bilan band bo'lishi muhimligini bilishlari zarur. Sababi, aksariyat hollarda katta avlod tomonidan taklif qilinadigan bo'sh vaqtni o'tkazish shakllari bolalarning manfaatlari, qiziqishlari, ularning individual xususiyatlariga mos bo'lmasligi mumkin. O'smirlar bo'sh vaqtining rasmiy bo'lgan vaqt makonidan ahamiyatli tomoni shundaki, ular faoliyatida ixtiyoriylik, erkinlik va mustaqillik tamoyillari asosida harakatlanish erkinligining mavjudligi o'zlarini turli xil ijtimoiy rollarda sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

V.Z.Dulikovning fikricha, shaxsning rivojlanishida faqat atrof-muhit emas, balki shaxs shakllanishining g'oyaviy va qadriyat muhiti, ya'ni, ijtimoiy muhitda ma'naviy-axloqiy, ijodiy va intellektual iqlim asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega[2].

Shaxsning ijtimoiylashuvida bo'sh vaqtdagi faoliyatining ahamiyati haqida mulohaza qilar ekanmiz, mazkur jarayonda ijtimoiy tarbiya jarayon va natija sifatida shaxsning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish, hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy tarbiya shaxsning ijtimoiy voqelikga munosabatini shakllantiradi va uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy tarbiya borasida rus tadqiqotchisi A.V.Mudrikning fikrlari ahamiyatlidir. U "ijtimoiy ta'lim"ni bolalar va o'smirlarni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirishga qaratilgan maxsus tashkil qilingan ta'lim shakli, ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas qismi sifatida ta'riflaydi [4].

Shu o'rinda ijtimoiy ta'limning vazifalari jamiyatning muayyan ehtiyojlari, ijtimoiy tartib, madaniy maqsad, hamda tarixiy vaziyatdan kelib chiqadi. Shu jihatdan ijtimoiy tarbiya shaxsni shakllantirishda vosita, usul va shakllar majmuasidan foydalanishda tizimlilikni talab qiladi. Bo'sh vaqtni to'g'ri shakllantirish o'smir-yoshlarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'sh vaqt texnologiyalari asosida ijtimoiylashuv jarayonida:

- bolalar va o'smirlarning havaskor ijodiy tashabbuslarini rivojlantiriladi;
- bo'sh vaqt ijtimoiy moslashuvning ko'p bosqichli jarayonining asosi bo'lib xizmat qiladi;
- bolalar va o'smirlarda barqarorlik va o'zini o'zi himoya qilishning psixologik yo'llarini shakllanadi;
- o'z-o'zini hurmat qilish ko'nikmalarining shakllanishi va ochiq mikro jamiyatda o'zini o'zi boshqarish va hokazo [3].

Ijtimoiy tarbiya jarayonida bolalarning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy munosabatlari shakllanadi, hamda o'smirlarning o'z-o'zini anglashi yuz beradi. Bu esa o'z navbatida o'smirlarning aqliy faoliyatiga restorativ ta'sir qiladi. Sport va sog'lomlashtirish

yoʻnalishi bolalar va oʻsmirlarning salomatligi, hayotiyliigi va jismoniy qobiliyatlari, sogʻlom turmush tarziga rioya qilishi, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalari oʻsmir-yoshlarning koʻpchiligi “boʻsh vaqt” ni “oʻyin va dam olish” vaqti sifatida taʼriflashi aniqlashtirildi. Boʻsh vaqt rasmiy boʻlmagan ixtiyoriy vaqt makoni hisoblanadi. Vaqtdan unumli foydalanish oʻsmirlarning bugungi va ertangi farovonligiga bevosita hissa qoʻshadi. Farovonlik uchta asosiy oʻlchov bilan aniqlanadi:

1. Sub'ektiv farovonlik.
2. Psixologik farovonlik.
3. Ijtimoiy farovonlik.

Casas va Lopez fikricha sub'ektiv farovonlik gedonik nuqtai-nazardan hayotdan qoniqishni baholashni oʻz ichiga oladi. Psixologik farovonlik oʻz-oʻzini anglash jarayonlarida inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik holat. Ijtimoiy farovonlik shaxslararo munosabatlardan qoniqishni bildiradi.

Olimlar ijtimoiylashuv sodir boʻladigan va shakllanish amalga oshiriladigan uchta sohani aniqladilar:

- faoliyat
- muloqot;
- oʻzini-oʻzi anglash[5].

Ijtimoiylashuv samaradorligining asosiy natijasi oʻsmir-yoshlarning ijtimoiy rollar va vazifalarni oʻzlashtirishi, “jamiyatning faol aʼzosi” ga aylanishi, oʻz-oʻzini nazorat qila olishi, boʻlib, bu muommoni birinchilardan E.Dyurkeym koʻrib chiqqan. Ijtimoiylashuv samaradorligi sifatida “bolaga koʻnikmalarini singdirishi” ni tushunganlar.

Agar shaxs zarur rollar, jamiyat tasdiqlangan qadriyatlar, ijtimoiy normalar hatti-harakatlarni oʻzlashtirishi.

Tadqiqot bilan bogʻliq bir qator ilmiy muommolar mavjud:

- ijtimoiylashuv samaradorligining aniq mezonlari berilmagan;
- ijtimoiylashuvning samaradorligi haqida juda kam tadqiqotlar amalga oshirilgan;
- ijtimoiylashuvning samaradorligini aniqlashning qiyinligi;
- jarayonning yaxlitligi va koʻpqirraliligi bilan bogʻliq.

Zamonaviy adabiyotlarda ijtimoiylashuvning turli shakllari koʻrib chiqiladi. Ijtimoiylashuv ijtimoiy muhit taʼsirida insonda maʼlum bir fazilatlarining oʻz-oʻzidan shakllanishi. Bunda shaxs uchun qarindoshlari, doʻstlari, atrofidagi yaqin kishilari muhit hisoblanadi. Oʻsmirlardagi ijtimoiylashuvni passiv ijtimoiylashuv va faol ijtimoiylashuv kabi

turlarga ajratish mumkun. O‘smirni sub‘ektivlik, shaxsiy ishtirok, qiziqish asosida yaxshi natijalarga erishishga intilish, muayyan faoliyatga jalb qilish jarayoni. Passiv sotsializasiya har qanday faoliyatda o‘smirlarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon qilishda faol ishtirokini anglatmaydi. Offlayn ijtimoiylashuv- bu real makondagi ijtimoiylashuv. Onlayn ijtimoiylashuv- internet makonidagi ijtimoiylashuv. Shaxs ko‘nikmalarini rasmiy va norasmiy ta‘lim turlarida amalga oshirishi mumkun. Faol ijtimoiylashuv o‘quvchilarning darsdan tashqari mashg‘ulotlariga jalb qilinganida muhim faoliyat yo‘nalishlarni amalga oshirishida namoyon bo‘ladi. Norasmiy ta‘limda ijtimoiylashuv samaraliroq bo‘ladi. Sababi o‘smirning bilim, ko‘nikma va malakalarini, shuningdek odatlarini, atrofdagi voqelikga munosabatini bildirish shakllanadi. Bu o‘zini muvaffaqiyatli amalga oshirish, ijtimoiy rollarni rivojlantirish va kamolotga erishishini ta‘minlaydi. Shaxs ko‘proq kattalardan tajriba orttirish yoki o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali o‘rganadi. Passiv sotsializasiyada shaxs ma‘lum bir sohada sezilarli faollik ko‘rsatmaydi, lekin yashirin o‘rganishni oladi. Zamonaviy o‘smirlarni ijtimoiylashtirishning eng muhim media muhitning xususiyatlari tahlil qilindi. Axborotni iste‘mol qilishda tanqidiy yondashuv, ya‘ni iste‘mol madaniyatining shakllanishi muhim. Yo‘qsa deviant xulq-atvorning va huquqbuzar hatti-harakatlarga befarqlik (desenibilizasiya), o‘smirlik davrida buzg‘unchi shaxsning rivojlanishi kabi holatlar yuz berishi mumkun [6].

AQShning Virjiniya universiteti professori J.Anettening fikricha “Boshqa agentlardan farqli ravishda ommaviy axborot vositalarini ijtimoiylashtirish o‘smirlarga ularni qiziqtirgan ma‘lumotlarni tanlash ularning o‘z-o‘zini ijtimoiylashtirishni rag‘batlantiradi”. Bir tomondan ommaviy axborot vositalari o‘smirlarning shaxsiyatini ko‘proq ochishga, ularning ijtimoiy ufqlarini kengaytirishga yordam beradi, boshqa tomondan, uning ta‘sirida turli xil manipulativ amaliyotlar qurboni bo‘lish xavfi ortadi. O‘sib kelayotgan avlodga berilayotgan bugungi e‘tibor, shubhasiz, ertangi taraqqiyotga zamin bo‘ladi.

Zamonaviy sosiologik va psixologik tadqiqotlarda dam olish shakllari passiv va faol turlarga bo‘linadi. Dam olish faoliyatining xususiyatlari uning shaxs uchun ixtiyoriy tabiatga egaligi, manfaatsizlik va shuningdek, insonning o‘zini o‘zi ifoda etishga bo‘lgan extiyojning muvofiqligi hisoblanadi[1].

A.A. Anreevaning so‘zlariga ko‘ra, o‘smirni qiziqtirish unchalik qiyin emas, saqlash va rivojlantirish nihoyatda qiyin. Ya. Strelsov bo‘sh vaqtni alohida intellektual va hissiy holat holat, alohida “tafakkur” sifatida tushunadi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, vaqtdan foydalanish va o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini o‘tkazishlari ularning hayotiy sharoitlari bilan bog‘liq. O‘smirlarning irqi, jinsi, yashash joyi,

ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bo'sh vaqtni tashkil qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu borada dunyo mamlakatlaridagi holatni tahlil qiladigan bo'lsak, Ekvadorda ayollar erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'p haq to'lanmaydigan uy ishlari bilan band bo'lishadi. Markaziy Osiyoda ham bo'sh vaqtdan foydalanishda gender farqlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, o'smir yoshdagi qiz va o'g'il bolalar bo'sh vaqtdagi mehnat taqsimotida katta farqlar mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, erkak va ayollarning bo'sh vaqtdagi mehnat taqsimoti o'smirlik davridayoq mustahkamlanadi. O'smirlarning bo'sh vaqtlaridan foydalanishlarida gender tafovutni sezish qiyin emas. Jumladan, o'g'il bolalar ko'proq sport musobaqalarida ishtirok etishi qizlarga nisbatan kengroq uchraydi. Qiz bolalarning bo'sh vaqtlari o'g'il bolalarga nisbatan kamroq. Jismoniy mashqlar jismoniy va ruhiy salomatlikga, yetakchilik qobiliyati, jamoada ishlash va chidamlilik ko'nikmalarining shakllanishi, hamda, o'z-o'zini hurmat qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bo'sh vaqt - o'smir uchun turli qobiliyatlarni egallash, ularning umumiy rivojlanishi va avtonomiyalarini amalga oshirishda muhim. Demak, bo'sh vaqt bu-shaxsiy o'sish, ijod qilish, dam olish va jamiyatda ishtirok etishidir[7]. Qizlar zimmasiga tushadigan haq to'lanmaydigan mehnat yuklari o'g'il bolalarnikiga nisbatan ko'p. Kam ta'minlangan oilalarda bo'sh vaqt o'z hohishlari bo'yicha o'tkazishlari bo'yicha imkoniyatlari cheklangan.

XULOSA

O'smirlar bo'sh vaqtlari nafaqat o'ziga xos manba, balki, o'zining ma'naviy-jismoniy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiylashuv jarayonining muhim qismidir. Bo'sh vaqt ularga oiladan tashqari muloqat qilish imkoniyatini, kattalar roliga kirish, kelajakda kattalar kabi shaxsiyatini rivojlantirish va bunda talab qilinadigan ko'nikmalarni amalda qo'llash, o'z manfaatlarini ifoda etish, tengdoshlari orasida o'z munosabatlarini qurish kabi imkoniyatlarni beradi. Bu harakatlar, shuningdek o'smirlarga o'z-o'zini anglashlariga, ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Demak, bo'sh vaqt o'z-o'zini rivojlantirish, yaratish (ijodkorlik), dam olish, jamiyat hayotida samarali ishtirok etish, hamda majburiyatlardan ozod makon bo'lib, hayotda yangi ko'nikmalar, qadriyatlar, bilim va ko'nikmalarni egallash, turli imkoniyatlar makonidir. Bu makondagi shart-sharoitlar farzandalarimizning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Акимова Л.А. Социология досуга: Учебное пособие/ Л.А.Акимова; МГУКИ.М., 2003.-123с.



2. Дуликов В.З. Организованный процесс в социкультурной сфере: Учебное пособие /В.З.Дуликов.М.,2003.-87с.
3. Капустина Н.М. Базовая культура личности Текст.: Методические рекомендации/Н.М. Капустина. Киров: ВГГУ, 2002. -22с.
4. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику/А.В.Мудрик; под ред. Д.И.Фельдштейна.2-е.изд.М.: Московской психологосоциальный институт, 2009.—568 с.
5. Н.А.Затирко.Особенности социализации подростков в условиях современной школы. -Р.21-23.
<https://elib.bspu.by/bitstream/doc/40912/1/%D0%9D.%20%D0%97%D0%B0%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BA%D0%BE.pdf>
6. Харрис Р. Психология массовых коммуникаций. СПб.: Прайм-Еврознак, 2002. 448 с. 5. Arnett J. Adolescents' Uses of Media for SelfSocialization // Journal of Youth and Adolescence. 1995. Vol. 24. № 5. P. 519–533
7. 2010).https://repositorio.cepal.org/bitstream/handle/11362/40760/1/S1601046_en.pdf